

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BUXARBAEVA JAZIRA JAKSILIKOVNA

T.MATMURATOV ASARLARINING LINGVOPOETIKASI

10.00.03 – Qoraqalpoq tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Buxarbayeva Jazira Jaksilikovna

T.Matmurotov asarlarining lingvopoetikasi..... 3

Бухарбаева Жазира Жаксылыковна

Лингвопoэтика произведений Т.Матмуратова..... 27

Bukharbayeva Zhazira Zhaksylykovna

Linguopoetic of the works of T.Matmurotov..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BUXARBAEVA JAZIRA JAKSILIKOVNA

T.MATMURATOV ASARLARINING LINGVOPOETIKASI

10.00.03 – Qoraqalpoq tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Fil1502 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «Ziyonet» axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karlibaeva Gulmira Ermekbaevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Najimov Perdebay Aymanovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Kazimbetova Ziyuar Maxsetbaevna
filologiya fanlari filosofiya doktori (PhD)

Etakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «13» 09 kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25, faks: (99861) 223-59-25; e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (199 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «26» 08 kuni tarqatildi.
(2024 yil «26» 08 dagi 7 raqamli reestr bayonnomasi).


Q.K.Orazimbetov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor


D.B.Seytkasimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent


A.K.Pirniyazova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
dotsent



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Har bir xalqning o'zligini anglashga bo'lgan asriy intilishlari, millat tafakkuri va ongida doimiy davom etadigan milliy, ma'naviy, mafkuraviy qayta tiklanish jarayonlari badiiy adabiy merosga, xalqning yuksak ma'naviyati va madaniyatiga, ona tilining shakllanishi va takomiliga yangicha nuqtai nazardan yondashishni taqozo etadi. Jahon tilshunosligida badiiy asar tilining lingvopoetik xususiyatlari va ijodkorning lug'aviy birliklardan foydalanishdagi o'ziga xos mahoratini tadqiq etish asosida til taraqqiyotini belgilaydigan yetakchi tamoyillarni aniqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyo tilshunosligida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda poetik asarlarning leksik va uslubiy xususiyatlarini o'rganish, badiiy matn kontekstual tabiatida yuz berayotgan struktural va funksional o'zgarishlarni aniqlash, badiiy adabiyotda qo'llanilgan til materillarining leksik-semantik xossalarini tavsiflash muhim ilmiy-nazariy mohiyat kasb etmoqda. Bunday tadqiqotlarning natijalari milliy til taraqqiyotining tadrijiy bosqichlari manzarisini ochib berishi bilan bir qatorda lisoniy birliklarining ma'no qamrovi va semantik xossalarini aniqlashga ham imkon beradi. Badiiy asar tilini, ayniqsa, she'riy asarlar tilini o'rganish, muallif tamonidan ishlatilgan qanday bir til birliklarining badiiy-estetik qiymatini aniqlash, ilmiy jihatdan tahlil qilish, lingvopoetikaning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishga, tilimiz rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir»¹. Milliy qadriyatlarimizni qayta tiklash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar xalqimiz ma'naviy dunyosini o'zida aks ettirgan ona tilining imkoniyatlarini va uning jamiyatda qo'llanilish doirasini yanada kengaytirishga imkon yaratdi. Til birliklarining poetik xizmatlarini aniqlash, lingvopoetikaning nazariy masalalarini tadqiq etish, hozirgi kunda lingvopoetikaning qoraqalpoq tilshunosligida tutgan o'rnini belgilashda T.Matmurotov asarlarining o'rnini (ijodi) alohida. Haqiqatdan, shoir o'z asarlarida qoraqalpoq xalqining milliyligini, yashash turmushini, qardosh xalqlar bilan aloqasini mahorat bilan aks ettirgan. T.Matmurotov asarlari o'ziga xos og'zaki nutq elementlari, naql-maqollar, frazeologizmlarga boy bo'lib, unda shakl va mazmun birligi ham saqlagan. Shu bois, adib asarlari tili o'ziga xos, shu paytgacha to'plangan juda boy mazmundagi poetik tilini o'rganish, shu jumladan, adibning qoraqalpoq adabiyotida alohida o'rnini belgilab berish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Zero, hozirgi kunda badiiy asarlarni lingvistik, lingvopoetik jihatdan tadqiqot olib borish qoraqalpoq tilshunosligining rivojlanishiga muayyan darajada o'z hissasini qo'shadi va yangicha ilmiy xuloslar chiqarish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeiini tubdan oshirish chora-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нufузи ва мавқеини tubдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сон Фармони // <https://lex.uz/>

tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2020 yil 20 oktyabrdagi PF-6084-son «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumining 2019 yil 16 oktyabrdagi 584-son «Davlat tili haqida»gi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qarori qabul qilinganligining o‘ttiz yilligiga tayyorgarlik ko‘rish va nishonlashni tashkillashtirish chora-tadbirlari haqidagi Qarori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumining 2020 yil 3 noyabrdagi «Qoraqalpoq tilining davlat til sifatida mavqei va nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari haqida»gi, 2021 yil 16 iyuldagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumining «Qoraqalpoq tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari haqida»gi qarorlari va shu sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda bu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida badiiy asar tili haqidagi ilk fikrlar yunon faylasufi Aristotelning nomi bilan bog‘liq². Stilistika, estetika, badiiy asar tili kabi ilm sohalarining rivojlanishi natijasida lingvopoetika yo‘nalishi paydo bo‘ldi. Ushbu masalalar bo‘yicha avallo G.E.Lessing, S.Saporta, R.Yakobson, B.Larin, Yu.M.Lotman, V.M.Jirmunskiy, V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, A.A.Potebnya, E.Koseriu, O.S.Axmanova, V.Ya.Zadornova, A.A.Lipgart kabi olimlar maxsus tadqiqot ishlarini olib borishgan³.

Qozoq tilshunosligida A.B.Salqinbay⁴, qirg‘iz tilshunosligida A.E.Abdikerimova⁵, azarbayjon tilshunosligida A.T.Gryaznovalarning⁶ tadqiqot ishlari lingvopoetika yo‘nalishiga bag‘ishlandi.

O‘zbek tilshunosligida lingvopoetikaning alohida ilmiy yo‘nalish sifatida paydo bo‘lishi va rivojlanishida X.Doniyorov, I.Mirzaev, Q.Samadov, I.Qo‘chqortoev, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Umurqulov, I.Mirzaev singari olimlarning⁷ xizmatlari katta. Shu bilan birga, Z.Hamidov, M.Yoqubbekova, I.Mirzaev,

² Аристотель. Об искусстве поэзии (Перевод с древнегреческого В.Г. Апелльрота). –М.: 1957.

³ Виноградов В.В. Итоги обсуждения вопросов стилистики. –М.: 1986. –С. 117-189; Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных как предмет лингвопоэтического исследования: Дисс. ... докт. филол. наук. – М.: 1992; Липгарт А. А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика: Дисс. ... докт. филол. наук. –М.: 1996. –С. 656; Основы лингвопоэтики. –М.: Диалог-МГУ, 1999. –С. 165.

⁴ Салкынбай А.Б. Абай сөзінің лингвопоэтикасы: монография. –Алматы.: 2015.

⁵ Абдыкеримова А.Э. Лингвопоэтика: статусу жана проблемалары. –Каракол, 2008; Сөздүн поэтикасының айрым мәселелери. –Каракол.: 2013.

⁶ Грязнова А. Т. Лингвопоэтический анализ художественного текста: подходы и направления. –М.: МПГУ, 2018. –С. 324.

⁷ Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. –Тошкент.: 1962. Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. –Тошкент.: 1981. Қўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. – Тошкент.: 1975. Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент.: 1981. Умурқулов Б. Бадий адабиётда сўз. –Тошкент.: 1993. Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии): Дисс. ...докт. филол. наук. –Тошкент.: 1992. Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. –Тошкент.: 2009.

S.Karimov, M.Yo‘ldoshev, G.Yaxshieva, A.Abdullaev, I.Hojaliev, D.Shodieva, O.Mamaziyayev, M.Abdupattaev, G.Muhammadjonova, M.Akbarova, A.M.Shofqorovlarning ilmiy ishlari badiiy asarlarning lingvopoetik tadqiqotiga bag‘ishlangan⁸.

Qoraqalpoq tilshunosligida lingvopoetika yo‘nalishining paydo bo‘lishida. Sh.Abdinazimovning xizmati alohida. Uning «Lingvopoetika» o‘quv qo‘llanmasi qoraqalpoq tilshunosligida ushbu sohaga bag‘ishlangan ilk ilmiy asar hisoblanadi⁹. Shuningdek, D.Erjanova, Z.Qazimbetovalarning tadqiqot ishlari badiiy asar tilining lingvopoetik masalalariga bag‘ishlandi¹⁰.

T.Matmurotov asarlarining lingvopoetik xususiyatlari qoraqalpoq tilshunosligida hali maxsus tadqiq etilmagan. Shunga ko‘ra, shoirning she‘riy asarlari tilini o‘rganish, muallif uslubining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib berish muhim masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetining «Hozirgi filologiya fanining dolzarb masalalari» mavzusidagi ilmiy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi T.Matmurotov asarlarining lingvopoetik xususiyatlarini ochib berish, uning she‘rlaridagi til birliklarining estetik effekt hosil qilish vazifasi, shoirning uslubini, individualligini anglatuvchi til birliklarining o‘rnini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

T.Matmurotovning til vositalaridan foydalanishdagi individualligini aniqlash va qoraqalpoq tilining lug‘aviy-uslubiy taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini asoslashdan iborat;

T.Matmurotov asarlarida leksik birliklar, sinonim, antonim, okkazionalizmlarning lingvopoetik xususiyatlarini ko‘rsatib berish;

T.Matmurotov asarlarida qo‘llanilgan frazeologizmlar va naql-maqollarning badiiy matnning ta‘sirchanligi, badiiyligi va obrazligini ta‘minlashdagi ahamiyatini ko‘rsatish;

shoir asarlarida badiiy tasvirlash vositalari, inversiya, anafora va epifora, badiiy takrorlar va ritorik so‘roq gaplarning o‘ziga xos lingvistik-estetik vazifalarini ochib berish.

⁸ Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка «Лисан ат-тайр» Алишера Навои: автореф. дисс... канд. филол. наук., –Тошкент: 1982; Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. –Тошкент.: «Фан», 2005; Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол. фан. докт. ...дис. автореф. –Тошкент.: 1993; Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. Филол. фан. номз. ...дисс. –Тошкент.: 1996; Абдуллаев А. Ҳозирги замон ўзбек тилида маъно кучайтиришнинг фонетик ва морфологик усули. Филол.фан. номз. ...дисс. –Тошкент.: 1970; Ҳожалиев И. Тасвир нутқ типининг лингвистик хусусиятлари. Филол.фан. номз. ...дисс. –Тошкент.: 1998; Шодиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. ...дисс. –Тошкент.: 2007; Мамазияев О. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва грация. Филол. фан. номз. ...дисс. –Тошкент.: 2005; Абдулаттаев М. Ўзбек тилида суперсинтактик бутунликлар. Филол. фан. номз. ... дисс. –Тошкент.: 1998; Муҳаммаджонова Г. 80-90 йиллар ўзбек шеърининг лингвопоэтик таҳлиқи: Филол. фан. ном. ...дис. автореф. –Тошкент.: 2004; Акбарова М. Алишер Навоий асарларида кофия. Филол. фан. номз. ...дисс. –Тошкент.: 1997; Шофқоров А.М. Миртемир шеърининг тақрорнинг маъновий-услубий хусусиятлари. Филол. фан. ном. ...дисс. автореф. –Тошкент.: 2012.

⁹ Абдиназимов Ш. Лингвопоэтика. –Нөкис.: 2019. –Б. 164; Абдиназимов Ш. Лингвопоэтика. –Тошкент.: 2020. –Б. 150.

¹⁰ Ержанова Д. И.Юсупов поэмаларининг лингвопоэтик таҳлили. Филол. фан. фалс. докт. дисс...автореф. –Нукус.: 2022; Қазымбетова З. Ж.Избасқанов асарларининг лингвопоэтик таҳлили. Филол. фан. фалс. докт. дисс...автореф. –Нукус.: 2022.

Tadqiqotning obyekti – T.Matmurotovning «Aq terek pe, kók terek» (1964), «Lirika» (1966), «Gózzalliq oyandı» (1970), «Aysanem» (1973), «Ashılısıw» (1977), «Arzıw shámeni» (1981), «Jaqsılıq sarayı» (1986), «Juldızlar janar» (1989), «Saylandı shıǵarmaları» (2019) she’rlar to‘plamlaridan olingan misollar lingvopoetik yo‘nalishda tahlilga tortilgan.

Tadqiqotning predmeti – T.Matmurotov asarlarining leksik, uslubiy-sintaktik poetikasi va badiiy-estetik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishining mazmunini yoritishda lingvopoetik, tavsiflash, qiyoslash, funksional-semantik, tahlil va sintez tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qoraqalpoq adabiy tilining taraqqiyotida Tulepbergen Matmurotov ijodi, ayniqsa, uning so‘z qo‘llash hamda adabiy tilning badiiy-estetik tabiatini takomillashtirish bilan bog‘liq individual mahorati, ijodiy novatorligi muhim o‘rin tutishi aniqlangan;

shoir asarlarida qo‘llanilgan sinonimlar matnda qator qo‘llanish orqali asarning badiiyliги, ekspressivligi orttirilganligi va matnda kontrast tasvirlash, antonimik qarama-qarshiliklar kompozision bog‘liqlikga ega bo‘lib, antonimik uyalar voqea-hodisani aniq tasvirlashda, qahromonning ichki dunyosini, xarakterini ochib berish uchun xizmat qilganligi asoslangan;

T.Matmurotov she’rlaridagi okkazonalizmlar yordamida fikrni ta’sirchan etkazib berish va xalq og‘zaki ijodi na’munalari naql-maqollar va frazeologizmlarning strukturasi o‘zgartirish, qayta ishlash orqali obrazli tasvirlash, fikrlarning dalili, nutqni ixchamlashtirish kabi lingvopoetik vazifalarni bajarishi aniqlangan;

T.Matmurotov asarlarida sifatlash, o‘xshatish, metafora, metonimiya, sinekdoxalarning badiiy-estetik vazifa bajarishi va ularning poetik matn hosil qilishidagi semantik-stilistik xususiyatlari, shuningdek, shoir asarlarining poetik sintaksisi inversiya, takror, anafora va epifora, gradatsiya, ritorik so‘roq gaplarni uslubiy qo‘llash orqali lingvistik-estetik funksiyalarni bajarishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

T.Matmurotov asarlari bo‘yicha tahlilga olingan materiallar, qo‘yilgan masalani ilmiy tadqiq qilish natijasida olingan xulosalar, dalillar va fikrlar hozirgi qoraqalpoq tilshunosligi, jumladan, lingvopoetika, leksikologiya, stilistika sohalari uchun muhim ilmiy ma’lumotlar ekanligi ko‘rsatib berilgan;

shoir asarlari tilining lingvopoetik xususiyatlarini ochib berish natijasida olingan ilmiy yechimlar badiiy asar tili lingvopoetikasi bo‘yicha kelgusi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda manba xizmatini bajarishi, lingvopoetika, stilistika kabi fanlarni o‘qitishda amaliy yordam berishi har tomonlama isbotlangan;

shoir asarlari leksikasining lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash asosida XX asr qoraqalpoq she’riyati badiiy kontekstining semantik tabiati ochib berilgan;

dissertatsiya natijalari T.Matmurotov asarlari tilining izohli lug‘atini tuzishda, qoraqalpoq tilshunosligining lingvopoetika sohasi bo‘yicha yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi dissertatsiyani tayyorlash jarayonida qo‘llanilgan nazariy ma’lumotlarning ishonchli ilmiy manbalardan, keltirilgan misollarning shoirning she’rlar to‘plamlaridan olinganligi, tahlil va xulosalarning

tavsifiy, tasniflash, qiyosiy usullar bilan asoslanganligi, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi va tegishli muassasalar tamonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, shoir T.Matmurotov asarlarining tili, uning lingvopoetik xususiyatlari qoraqalpoq tilshunosligida ilk bor har tamonlama o'rganilgan. Tadqiqot natijalari lirik shoirlar asarlari tilini o'rganishda tayanch xizmatini bajarishi mumkin. Tadqiqotda shoirning qoraqalpoq adabiy tili rivojida tutgan o'rni, o'ziga xos individual uslubi xususiyatlari aniqlangan. Dissertatsiya natijalari XX asr qoraqalpoq adabiy tili lingvopoetikasini o'rganishda muhim ilmiy manba va nazariy asos vazifasini o'taydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya nayijalarining badiiy asar tili lingvopoetikasi, stilistikasi bo'yicha monografiyalar, darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlash, lug'atlar yaratish, filologiya fakulteti o'quv jarayonida badiiy asar tili bo'yicha ma'ruzalar, maxsus kurslar, fakultativ darslar, maxsus seminarlar tashkil etishda muhim manba xizmatini bajarishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shoir T.Matmurotov asarlari tilini lingvopoetik tadqiq qilish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qoraqalpoq adabiy tilining taraqqiyotida Tulepbergen Matmurotov ijodi, ayniqsa, uning so'z qo'llash hamda adabiy tilning badiiy-estetik tabiatini takomillashtirish bilan bog'liq individual mahorati, ijodiy novatorligi muhim o'rin tutishi aniqlanganligi hamda shoir asarlarida qo'llanilgan sinonimlar matnda qator qo'llanish orqali asarning badiiyliги, ekspressivligi orttirilganligi va matnda kontrast tasvirlash, antonimik qarama-qarshiliklar kompozision bog'liqlikka ega bo'lib, antonimik uyalar voqea-hodisani aniq tasvirlashda, qahromonning ichki dunyosini, xarakterini ochib berish uchun xizmat qilganligi asoslanganligiga bog'liq yangi ma'lumotlar O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2012-2016 yillarda FA-FI-GOO3 «Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi» mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2023-yil 15-fevraldagi 59/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, T.Matmurotov ijodining poetik xususiyatlarini ochib berishda amaliy ahamiyat kasb etgan;

T.Matmurotov she'rlaridagi okkazionalizmlar yordamida fikrni ta'sirchan etkazib berish va xalq og'zaki ijodi na'munalari naql-maqollar va frazeologizmlarning strukturasi o'zgartirish, qayta ishlash orqali obrazli tasvirlash, fikrlarning dalili, nutqni ixchamlashtirish kabi lingvopoetik vazifalarni bajarishi aniqlanganligi yuzasidan xulosalar Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyida T.Matmurotovning hayoti va ijodi, adabiy me'rosi bo'yicha ko'rgazmalar tashkil etishda, badiiy-adabiy ekskursiya darslarini o'tkazishda va ilmiy-nazariy konferensiyalarda ma'ruza shaklida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2023-yil 30-yanvardagi 2-02/113-son ma'lumotnomasi). Bu esa shoir ijodiy merosining ahamiyatini, uning badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahoratini ochib berishda yordam bergan;

T. Matmuratov asarlarida sifatlash, o'xshatish, metafora, metonimiya, sinekdoxalarning badiiy-estetik vazifa bajarishi va ularning poetik matn hosil qilishidagi semantik-stilistik xususiyatlari, shuningdek, shoir asarlarining poetik sintaksisi inversiya, takror, anafora va epifora, gradatsiya, ritorik so'roq gaplarni uslubiy qo'llash orqali lingvistik-estetik funksiyalarni bajarishi isbotlanganligi yuzasidan xulosalar «Qoraqalpog'iston» televideniesida «Erkin fikr», «Munosabat» madaniy-ma'rifiy ko'rsatuvida va «Qoraqalpog'iston» radiokanalining «Ma'naviyat bo'stoni», «Tilga e'tibor – elga e'tibor» eshittirishlarida dissertatsiya materiallari ommalashtirilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasining 2023-yil 14-fevral 05-22/86-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur eshittirishlar orqali tinglovchilarga shoir ijodi merosining ahamiyatini, shoirning badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahoratini, asarlarida qo'llanilgan naql-maqollar, frazeologizmlarning ma'nolarini ochib berish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 8 ilmiy-amaliy konferensiyada, shundan 4 xalqaro va 4 respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ilmiy ma'ruza qilingan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusiga doir jami 15 ilmiy ish e'lon qilingan. Shundan O'zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini ilmiy nashrlarda 7 maqola, jumladan respublika nashrlarida 5 maqola, xorijiy jurnallarda 2 maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Tadqiqot ishi hajmi 127 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tulepbergen Matmuratov asarlarida asosiy leksik-semantik kategoriyalar va ularning lingvopoetik tahlili**» deb nomlangan birinchi bobi besh fasldan iborat bo'lib, ulardan birinchi fasli «**Tulepbergen Matmuratovning qoraqalpoq poeziyasida tutgan o'rni**» deb nomlanadi. XX asr qoraqalpoq adabiyotining yorqin vakillarining biri Tulepbergen Matmuratov poeziyasi yuksak insoniylik fazilatlarini, or-nomus, vijdon, ona Vatan, yaxshilik, sof muhabbat mavzusini o'zgacha nozik hislar orqali yetkazib berishi bilan zamondoshlaridan ajralib turadi. Shoirning o'zining ham, she'riyatining ham shunday bir ajoyib dunyo ekanligini vaqtida durust anglay bilgan M. Nurmuhammedov shoir poeziyasining dastlabki davrlaridayoq ushbu poeziyaning maxsus tadqiqotga arziyini aytib o'tgan edi¹¹. Tulepbergen Matmuratov 1939 yil Qarao'zak rayonida dehqon

¹¹ Нурмухамедов М.К. Каракалпакская поэзия. (Краткий очерк). –Ташкент.: «Фан», 1977. –С.32.

oilasida tugʻilgan. Shoir qisqa umrida «Aq terek pe, kók terek» (1964), «Lirika» (1966), «Gózzallıq oyandı» (1970), «Aysánem» (1973), «Juldızlar janar» (1989) sheʼrlar va poemalar toʻplamlarini meros etib qoldirdi. Uning rus tilida ikki sheʼriy toʻplami (1984, 1988) bosilib chiqdi. U, Gyotening «Faust» tragediyasini qoraqalpoq tiliga tarjimaladi. T.Matmuratov 1986 yili «Arzıw shámeni» poetik toʻplami va «Jaqsı adamnıń júregi» poemasi uchun Qoraqalpogʻiston Respublikasi Berdaq nomidagi Davlat mukofatining laureati boʻldi. Xalq shoiri Tulepbergen Matmuratov ijodi haqida XX asrning 1970 yillardan boshlab ayrim ilmiy ishlar, qisqa ilmiy maqolalar yozildi. T.Matmuratov asarlari adabiyotchi-tadqiqotchilar S.Axmetovning «Ádebiyat hám kritika»¹², «Qaraqalpaq sovet poeziyası»¹³, M.Nurmuhammedovning «Úsh shayır»¹⁴, T.Mambetniyazovning «Qaraqalpaq sovet lirikası»¹⁵, «Poeziya – turmıs, gúres hám talpınıw»¹⁶, K.Xudaybergenovning «Lirika hám ómir»¹⁷, Q.Sultanovning «Zamanlas janım meniń»¹⁸, «Shayır jolı»¹⁹ ilmiy ishlarida shoirning ijodiy yoʻli, asarlarining janriy xususiyatda badiiy obraz yasash mahorati maxsus soʻz etildi. Ushbu ilmiy ishlarning hammasida Tulepbergen Matmuratovning ijodi yuqori baholandi. T.Matmuratov asarlarining gʻoya-tematik, janriy va badiiylik xususiyatlari, sheʼr tuzilishi E.N.Eshniyazova tamonidan terang tadqiq etilgan²⁰.

Mazkur bobning ikkinchi fasli «**Sinonimlar**» deb nomlanadi. Maʼlumki, *sinonimlar* tilning eng muhim ifoda vositalari, badiiylikni yuzaga chiqaruvchi asosiy omil sifatida matn jozibadorligi, taʼsirchanligi, ruhiy joʻshqinlik, badiiy aniqlik va toʻgʻriligini taʼminlovchi lisoniy vositalardan biridir. Badiiy matn bu vositalarsiz oʻzining estetik vazifasini bajara olmaydi. Shoir asarlarini tahlil qilish natijasida shunga ishonch hosil qildikki, u qoraqalpoq tili sinonimlaridan mohirona foydalanish bilan birga, uning badiiy ifoda imkoniyatlari qamrovini yangidan-yangi sinonimlar hisobiga boyitgan. Shoir T.Matmuratov asarlarida *ogʻzaki nutq tiliga xos boʻlgan sinonimlar* koʻpchilikni tashkil etadi. Shoir leksik sinonimlarni poetik til vositasi sifatida mohirona qoʻllab, ularni oʻz oʻrnida obrazli, taʼsirchan til birligiga aylantira bilgan. Shoir asarlarida *turqı, tús, kórik, shıray, ajar, diydar, ápshe, kelbet, shıray* sinonimlari uslubiy jihatdan toʻgʻri tanlanib, sheʼrga emotsional-ekspressiv jilo bergan. Masalan:

Turqıńdı táriyplep,

Qumardan shıǵayın («Goʻzallik uygʻondi»).

Ál hawada shaǵalalar sharıq urıp, biyhush ushadı,

Bilmeymen seniń *turqıńnan* olar ruwxlana ma! («Tugʻilgan oʻlkam haqida»).

Telmirip awıldıń *turqına* («Odamlarga roziman oʻzim»).

Turqın kórip arıslan ba dep qaldım («Qiyqimga»).

Shoir asarlarida sheʼr misralaridagi *turqı* soʻzi, asosan, qizlarning chiroyini va tugʻilgan yerning siymosini tariflash maqsadida ishlatilgan. *Turqı* soʻzi *kelbet, shıray,*

¹² Axmetov S. Ádebiyat hám kritika. –Nøkis.: 1978. –B. 396.

¹³ Axmetov S. Qaraqalpaq sovet poeziyası. –Nøkis.: 1988. –B. 373.

¹⁴ Nurmuhammedov M. Úsh shayır. // Ómiǵdérıya, 1971, №4. –B. 119.

¹⁵ Mámбетниязов Т. Qaraqalpaq sovet lirikası. –Nøkis.: 1989, –B. 96.

¹⁶ Mámбетниязов Т. Poeziya – turmıs, gúres hám talpınıń. –Nøkis.: 1993. –B. 20.

¹⁷ Xudaybergenov K. Lirika hám ómir. –Nøkis.: 1971, –B. 80.

¹⁸ Xudaybergenov K. Zamanlas janım meniń. –Nøkis.: 1972. –B. 142.

¹⁹ Sulтанов Қ. Shayır jolı. –Nøkis.: 1986. –B. 74.

²⁰ Eshniyazova É.N. Tulepbergen Matmuratovtıń lirikası (ideya-tematikaalıq, janrlyq hám kórkemlik ózgeshelik). Filol. ilim. kand. ... diss. –Nøkis.: 2001.

túr-tús soʻzlari bilan sinonim boʻlib, koʻpincha badiiy asarda va doimiy ogʻzaki nutqda yoqimsiz mazmuni berish maqsadida ishlatiladi.

Shoir tamonidan qoʻllanilgan sinonimlar qoʻshimcha emotsional-ekspressiv maʼno bildirish maqsadida, baʼzi oʻrinlarda bitta soʻzni nooʻrin takrorlamaslik uchun foydalanilgan:

Ajar opa qilmas opadarina,

Júzden *shuray* keter, quwat bellerden. («Bora-bora»).

Shoir *ajar* va *shuray* soʻzlarini qator ishlatib, ularning taʼsirchanligini yana da kuchaytish maqsadida mohirlik bilan qoʻllangan. Shoir *ajar* soʻzi yordamida goʻzallik va yoshlik mangu turmasaligi toʻgʻrisidagi tushinchani qisqa va chiroyli tasvirlagan.

Sinonim soʻzlarni qator qoʻllanilish orqali shoir oʻziga xos uslubni shakllantirgan va ular quyidagicha koʻrinishlarda uchraydi:

1. *Ogʻzaki nutq tiliga xos sinonim soʻzlarning qator qoʻllanilishi*. Shoir bunday sinonimlarni qator ishlatish orqali, fikrni gradatsiya usulida oʻtkir, taʼsirchan tasvirlashga erishgan:

Áydarha tilindey tili jalañlap,

Topalañ, uli-shuw, qum-quwit bolip («Dunyo soʻzlay bilar»).

2. *Eskirgan soʻzlarning sinonimik qatorni tashkil qilishi*:

Hesh qanday náirsege jarli emes dúnya,

Jamanliq *bisiyar*, jaqsiliq *nobay* («Dunyo soʻzlay bilar»).

Aqsha menen ólshenedi jollarín,

Shıtırlağan *shurwan* tutqan qollarín («Savol»).

3. *Vulgarizmlarning sinonimik qatorni tashkil qilishi*:

Báriniz de *geshshesiz*, báriniz de *miylansız*,

Jazı menen tek gána úsh gúdi ot-shóp jıyğansız... («Hoʻkiz»).

4. *Juft sinonimlar va pleonazmlarning sinonimik qatorlarni tashkil qilishi*. Shoir asarlarida ot soʻz turkumidan boʻlgan juft sinonimlardan unumli foydalangan:

Adamlar sarıplar *quwatın-kúshin*,

Qalay sarıplağanın jıl aytıp óter («Umr goʻzal»).

Ayır meni *ótirik-jaladan*,

Hadallıqtan meni ayırma («Ona yerdan meni ayirma»).

Pleonazm – nutq yoki matnning tamomlangan qismi doirasida bir xil maʼnoni ifodalovchi bir nechta lingvistik shakllarning mavjudligi. Masalan,

Eger usı turısında qaldırsaq,

Abıraq, dañq iyesi bizler bolamız («Yaxshi odamning yuragi» poemasi).

Terekti muñaytar *ızgırıq, salqın*,

Tólepti muñaytar súymegen xalqın («Yaxshilik»).

5. *Frazeologizmlarning sinonimik qatorni tashkil qilishi*. Shoir asarlarida frazeologizmlar yakka soʻzlar bilan va ikki frazeologizmning matn ichida qator kelishi holatlari uchraydi. Masalan,

Bayıp-bayıp ruwxıy paydalarğa,

Sher tarqatıp, debdiw shıgardım («Yaxshilik»).

6. *Evfemizmlarning sinonimik qatorni tashkil qilishi*:

Abbaz shayır aramızda sán edi,

Dúnyadan ótipti, keshe bar edi,

Óldi. Dúnya qaldı-gózzallıq qaldı,

Qosıq aspanında bir juldız sóndi («Abboz shoirning azasiga»).

Badiiy matnda badiiylikni, obrazlilikni ta'minlashda *perifrazalarning* ham o'rni alohida. T.Matmuratov asarlarida *oq rangiga bog'liq bo'lgan* perifraza sinonimlarni qo'llangan:

Paxta qirmanlari,

Appaq qirmanlar,

Appaq ırsıqı,

Ol appaqlıq aldı menen diyqanniń («Kuzgi quvonchlar»).

Shoirning tug'ilgan yer haqidagi asarida *mektep* (maktab) so'ziga sinonim sifatida *aq jay* (oq uy) perifrazasi qo'llanadi:

Ornimnan turıp azanda túskende eske *mektebim,*

Kóz aldıma buldırap, *aq jay,* esten ketpediń («Tug'ilgan o'lkam haqida»).

Mazkur bobning uchinchi fasli «**Antonimlar**» deb nomlanadi. Qoraqalpoq tilidagi antonimik stilistik figuralar va ularning stilistik vazifalari Sh.Xojanov tamonidan maxsus tadqiq etilgan²¹. Shoir asarlarida badiiy tasvirning asosiy vositasi sifatida qo'llangan *antonimlar* ekspressivlikni, tasvirning ko'rgazmaliligi, manzaraviyligini va aniqligini ta'minlash vazifasini bajaradi. Ular turli predmetlar va voqea-hodisalar orasidagi, shuningdek, tasvirlanayotgan hodisa ichidagi ziddiyatlarni ochib berish vositasi sifatida ishlatiladi. Badiiy asarda muallifning g'oyasini, aytmoqchi bo'lgan o'y-fikrini, emotsional holatini, qahromonning psixologiyasini ochib berishda kontrast tasvirlash usuli muhim o'rin egallaydi. Kontrast tasvirlashlarning ichida T.Matmuratovning o'ziga xos uslubini, til xususiyatlarini ko'rsatib berishda *bálent-pás, tún-kún, aq-qara, dos-dushpan, jaqsı-jaman, haqıyqat-jalğan* antonimik uyalar lingvopoetik qurol sifatida qo'llanilgan. Antonimik uyalar shoir tamonidan matnning badiiylikni, ekspressivligini orttirish va voqea-hodisalarni real, aniq tasvirlashda, qahramon xarakterini ochib berishda ahamiyatli jarayon bo'lib hisoblanadi. Masalan,

Tábiyat haq. Bári jayında,

Túni bolar hám de *kúndizi* («Bir odamning o'zi bir dunyo»).

Shoir insonlar xarakterini, ularning ichki dunyosidagi o'zgarishlarni, ziddiyatlarni *quyash-tas túnek* antonimlari bilan tasvirlagan:

Jaqsılardıń kónilinde *quyash* bar,

Jamanlardıń kónilinde – *tas túnek* («Savol»).

Shoir asarlarida *oq* va *qora* antonimi ham asarning g'oyasini, qahramonlarning xarakterini ochib berishda, voqea-hodisalarni aniq qilib tasvirlashda lingvopoetik vosita sifatida ishlatilgan:

Ağası joq, yaki inisi,

Qara shashın basqan *qıraw* da... («Urush dardlari» poemasi).

T.Matmuratovning she'rlarida *yaxshi-yamon* kategoriyasi ham shoir individualligini belgilashda ahamiyati katta. Masalan,

Bir *jamanniń* kesapatı,

Tiyer bolsa *jaqsılargá* («Odamzotda avvalo»).

²¹ Хожанов Ш. Қарақалпақ тилинде антонимия кубылысы. Нөкис.: 2017. –Б. 104.

Jaqsilarga til tiyse,

Mennen *jaman* adam joq («Baʼzilarni oʻylab»).

Shoir asarlarining badiiyligini, shoirning oʻziga xos xususiyatini, soʻz qoʻllanishdagi mahoratini taʼminlashda *oksyumoronning* ham oʻrni alohida. Masalan,

Azapli lázzetim, mazmunli muhim,

Biymáni kúlkiniń bárinen jaqsı («Yaxshi»).

Inson joniga ozor beruvchi qaygʻuni lazzatga, shodlikka qarama-qarshi tasvirlab, mana shu hissiyotlarning bemaʼni kulgudan ortiqligi shoir tamonidan ichki his-tuygʻularning koʻrinishi sifatida aks ettirilgan.

Mazkur bobning toʻrtinchi fasli «**Okkazonalizmlar**» deb nomlanadi. Tilda okkazonalizmlar muayyan bir badiiy-estetik, gʻoyaviy maqsadni koʻzlashdan paydo boʻlgan jarayon. Shoir asarlarida okkazonal soʻzlar toʻsatdan, konteksning xohishiga koʻra paydo boʻlgan. Shuningdek, ushbu bir qoʻllanuvchi okkazonal soʻzlar shoirning boshqa asarlarida uchramaydi. Masalan,

Olar sizlerdey hesh *tálimsimegen,*

Házir hár nárseni kúser janımız («Faxriy askarlar»).

Asarda «manmanlikka berilmagan, oʻzini boshqalardan ustun qoʻymagan» degan fikrni berishda «*tálimsimegen*» degan soʻzdan foydalanilgan.

Muallif oʻz asarlarida yangi soʻzlarni ham paydo qilgan:

Úyín *shadliqxana* bolıp, kúlkińnen,

Xrustal ıdıslar dirildep tursın («Yangi quvonch»).

Mazkur bobning besinchi fasli «*Ogʻzaki nutq birliklari*» deb nomlanadi. Ogʻzaki nutq tiliga xos birliklar maʼnolarining boyligi, koʻchma maʼnoliligi bilan ajralib, uslubiy tomondan taʼsirchan boʻlib keladi. Masalan:

Qısta muz qatsa da Aral teńizde,

Sewgi gúli óser bul kónilimizde («Sening har kelishing bahor kelgandek»).

Shiramıtsam onı senbe dep,

Oyım eken qurı *áńgódek* («Parizod»).

Shoir sheʼr misralarida *sewgi gúli* soʻz birikmasi yordamida muhabbat hislarini obrazli tasvirlagan boʻlsa, *áńgódek* soʻzi yordamida soddalikni va ayyorlikni mohirona tasvirlagan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Tulepbergen Matmurotovning asarlarida troplarning qoʻllanilishi**» deb nomlangan. Ushbu bobta shoir asarlarida qoʻllangan tasviriy vositalar va ularning badiiy nutqdagi oʻrni masalalari yoritilgan. Badiiy sanʼat muayyan malakasiz, nozik qochirim, soʻzni har xil maʼno tovlanishlarida qoʻllashsiz oʻz vazifasini tugal ado eta olmaydi. Bunday badiiy sanʼatlar azaldan *troplar* nomi bilan atalib kelinmoqda. T.Matmurotov asarlarida soʻz sanʼatining turlicha usullarini qoʻllab, sheʼrlarning poetik qimmatini oshirishga, ularni xalq diliga yaqinlashtirishga intilgan. Shoir, eng avallo, oʻz asarlarida soʻzlarning koʻp maʼnoliligidan mohirona foydalangan, shu asosda sheʼrlarida koʻrish, tasavvur qilish, sevish, fahm qilish, tushunish, anglash, hissiy zavqlanish tuygʻulari bilan bogʻliq uygʻunlikni hosil qilishga harakat qilgan.

Mazkur bobning birinchi qismi «**Epitetlar**» deb nomlanadi. T.Matmurotov sheʼrlarida tabiat tasviri, obrazlar portreti, xarakter-xususiyat tasvirida, qahramonning botiniy dunyosi, ruhiy kechinmalarini tasvirlashda *epitetlardan* ham unumli

foydalanadi. Shoir foydalangan epitetlar semantik jihatdan har xil bo‘lib, ular predmetlarni, tabiat ko‘rinishlarini har tomonlama tavsiflab, tasvirlab bergan. Shoir fikrini aniq, real tasvirlashda epitetlarni unumli foydalangan. Masalan,

Jumsaq samal, ja‘imli samal,
Átiraptı tınbay aralar («Navbahorning iliq iforiga»).

Jelpip esip jipek samalı,
Eginlerdi erkeletedi («Tabiat haq»).

Xalqımnıń qatqan bir zamanı keldi,
Azalıqtıń jupar samalı keldi («Dunyo»).

Oynap esse oyınshıl samal,
Qızdıń sıydam jipek shashların,
Arman-berman julqıp ótedi.
Oramalıń jelibiretedi.
Oynap esken *shoq minez samal:*
«Nege seniń aqıl huwshıń lal? ... («Oysanam» poemasi).

Oynaqı samallarıń,
Shashımdı sıypalağan («Qishlog‘im, yashil dalam»).

Bunda shoir shamolga doir epitetlarni, harakatni aniq va obrazli turda yetkazib berish uchun qo‘llangan. Shoir asarlarida *jumsaq, ja‘imli, jipek, oyınshıl, shoq minez, oynaqı* so‘zlari shamolning xususiyatini ta‘riflab kelish bilan birga asarga o‘zgacha emotsionallik bag‘ishlab kelgan.

Mazkur bobning ikkinchi qismi «**O‘xshatishlar**» deb nomlanadi. Qoraqalpoq tilida o‘xshatishlarning semantik-stilistik xususiyatlari va ifodalash yo‘llari P.Najimov tamonidan tadqiq etilgan²². Shoir asarlarida *o‘xshatishning* har xil shakllaridan foydalanib, badiiy tasvirning yorqinligini, tasavvur oydinligini, mushohada va idrok mukammaligini ta‘minlashga intilgan hamda go‘zal she‘riyat namunalarini yaratgan. Masalan,

Qoli sheber kesteshi qızday,
Sizde ana jerdi torlaysız («Bugunlari dehqon ko‘zida»).

Asardagi voqea dehqon haqida bo‘lib, dehqonning erga tuxum sochib, ekin ekishini kastachi qizning kasbiga o‘xshatadi. Dehqon va kastashi qizning kasbi emas, ularning mashaqqatli mehnatlari ya‘ni predmetning xususiyatlari o‘xshashligi nazarda tutiladi.

Jamg‘ır emes, jerdi sel etken,
Misli kózdıń jasları edi («Urush dardlari» poemasi).

Asarda eri urushga ketib, uni kutmasdan tashlab ketgan ayolning ko‘z yoshlari, dardlari, ichki tuyg‘ulari yomg‘irning yog‘ishi, yerning sel bo‘lishiga o‘xshatiladi.

Kúndizińde hám keshińde,
Jánnetke *megzer* qushağın («Qanday yaxshi tug‘ilgan o‘lkam!»).

Ushbu misrada tug‘ilgan o‘lkaning kuduzu va oqshomi jannatga o‘xshatiladi.

Shoir asarlarida o‘xshatishlar ikki predmet o‘zaro o‘xshatilganda ularning sifat xususiyatlari asosida o‘xshatilib, asarda tasvirlab berilayotgan voqea bo‘yicha

²² Нажимов П. Қарақалпақ тилинде теңеулер. –Нөкіс.: 2014. –Б. 80.

kitobxonga aniq ko‘rinishlarni tasavvur etishga, u orqali asarning badiiyligini, emotsionalligini ta‘minlashga erishgan. Misollar:

Tiniq suwdan shiqqan shiysheley,

Tiniq edi kewil aynasi («Dardli bo‘lib qoldi»).

Appaq sawle atiraplarda,

Jayilp atqan juqa siyledey,

Shiq jiltirar japiraqlarda,

Jilt-jilt etken polat iynedei («Men sevaman oyli oqshomni»).

Mazkur bobning uchinchi qismi «**Metaforalar**» deb nomlanadi. T.Matmuratov asarlarida qo‘llangan *metaforalar* poetik nutqga alohida jozibadorlik va emotsionallik bag‘ishlaydi. Shoirning umr haqidagi falsafiy tafakkuri, insonlarning o‘zaro munosabatlari, insonlarning ba‘zi xatti harakatlari asarda obrazli metaforalar bilan badiiy tasvirlagan. Shoir so‘zlamochi bo‘lgan fikrini ko‘chma ma‘noda, obrazli shaklda berish uchun yangicha uslubiy metaforalarni qo‘llangan. Masalan,

Arman kestesinih jipek sabagi,

Jaqsiliq boyawi menen boyalsin («Ko‘kda quyosh qolsin, yerda yaxshilik»).

Heshkinge omir bermeydi,

Rahát atli *pasportin* («Umrning hammasi to‘y emas»).

Kirgendi kormedim *rahát bagina,*

Azabin, zahmetin shekpesten burin («Avval»).

Jaqsiliq boyawi, rahát pasporti, rahát bagı metaforalari shoir uslubi va individualligidan paydo bo‘lgan metaforalar bo‘lib, tasvirlash usuli boshqa shoirlar ijodida uchramaydi.

Mazkur bobning to‘rtinchi qismi «**Metonimiya**» deb nomlanadi. Shoir ijodida *metonimiyalar* ham badiiylik ifodasi sifatida keng istifoda etilgan. Metonimiya ham so‘z semantikasini kengaytirish usuli bo‘lib, unda biror narsa-predmet haqida so‘z borib, butunlay yangi hodisa va tushunchalar haqida so‘z yuritiladi. Shoir asarlarida uning quyidagi ko‘rinishlari uchraydi:

1. Muayyan bir hudud, makon va ular orasidagi aloqa natijasida paydo bo‘lgan metonimiyalar:

Jaqtirmas koship ketken,

Qalali awillini («Turg‘un odam»).

2. Shaxs otlari metonimiya sifatida qo‘llaniladi:

Juz jillar boyina suydik Berdaqti,

Mih jillar otse de jane suyemiz («Berdaq»).

3. Ba‘zi sonlar metonimiya sifatida qo‘llaniladi:

Jigirma bes, otzımda,

Saz-sawbetke ere jurdim («Men o‘n yetti yosh edim»).

Mazkur bobning to‘rtinchi qismi «*Sinekdoxa*» deb nomlanadi. Shoir asarlarida *sinekdoxa* ham badiiy vosita sifatida obrazlilik, tasviriylik, ta‘sirchanlikni oshirishga mo‘ljallangan usul sifatida yuzaga chiqadi. Shoir *sinekdoxalardan* badiiy tasvir vositasi sifatida, o‘zining uslubiy xususiyati asosida foydalanib, qandaydir bir predmetni ikkinchisi bilan miqdor va son nisbati asosida almashtirib qo‘llangan.

1. Ko‘plik son o‘rniga birlik sonni anglatishda:

Aytqan sozlerine buzaw emdirip,

Biydi, xandi Ómirbekke jeńdirip («Suhbatlashar qoraqalpoqlar»).

Misoldagi *biydi, xandi* soʻzlari orqali shoir butun bir guruhni nazarda tutgan.

2. Butunning oʻrniga uning bir qismini qoʻllangan:

Jańilmas *jaq* bolmas, súrinbes *tuyaq*,

Adasıp qalıwdıń azabı jaman («Qoqilsangiz ham»).

Tadqiqotning uchinchi bobi «**Tulepbergen Matmurotov asarlarida xalq ogʻzaki ijodi namunalari**» deb nomlanadi. Mazkur bob «**Frazeologizmlar**» va «**Naql-maqollar**» deb nomlanuvchi ikki fasldan iborat.

Frazeologizmlar. T.Matmurotov qoʻllagan frazeologizmlar olami rang-barang va sermazmundir. Shoir asarlariga iboralarni bevosita oʻzgartirmasdan, oʻzgartirishlar kiritib ham ularni mahorat bilan qayta ishlab, sayqal berib qoʻllagan. «Urush dardlari» poemasi oʻsha davr koloritini ochib berishda shoir pochtaichining obrazini, uning xalq bilan birga dardini baham koʻrishini tasvirlashda *eki jartı bir pútin bolıp* frazeologizmini oʻrinli ishlatgan. Masalan,

Eki jartı bir pútin bolıp,

Otrıganda ishinde barman. («Urush dardlari» poemasi).

Shoir bir necha asarlarida iboralarni oʻzgarishsiz ustalik bilan badiiy asarning gʻoyasiga mos ravishda tanlab qoʻllangan. Bu kabi frazeologizmlar xalq tilida mavjudligicha qoʻllansa ham, ular noodatiy soʻzlar qurshovida shoir aytmogʻchi boʻlgan fikrni xalqqa ifodali va taʼsirchan yetkazishda, ijodkor badiiy niyatini oʻziga jalb qiladigan darajada qabul qilinishiga yordam bera olgan.

Shoir asarlarida komponentlari oʻzgartirilgan frazeologizmlar ham koʻplab uchraydi:

Qıynlıqtan qashqan jaslarǵa,

Ájıynesi atlanıp keter («Davri sholi»).

Ájıynesi tırısıw – «achchiqlanish» maʼnosini anglatuvchi frazeologizمنى oʻrniga *ájıynesi atlanıp* frazeologizmini ishlatgan. Bunday oʻzgartirishlar asarlarda oʻziga xos uslubiy maʼno anglatadi.

Kelte qolıń uzarmasa,

Aǵayınıń qızarmasa («Jon qiynamay janona yoʻq»).

Keltirilib oʻtilgan misolda *qolı uzarıw* – «ishi yurishish, holati yaxshilanish» maʼnosini anglatuvchi frazeologizmgaga shoir semantik tarafdin yaqin boʻlgan *qolı kelte* frazeologizmini qoʻshib qoʻllangan.

Shoir asarlarida bir komponenti tushirilib qoʻllanilgan frazeologizmlar ham uchraydi. *Isi nasırǵa shabıw* «ishi yurishmay yomon holatga tushishi, ishi yurishmay qolishi» holatini etkazib berishda koʻpchilikka maʼlum, xalq orasida unumli qoʻllanuvchi *nasırǵa shawıp* shaklida obrazli qoʻllangan. Masalan,

Basilar ma desem bunıń iz beti,

Baratır ǵoy kem-kem *nasırǵa shawıp* («Yaxshi odamning yuragi»).

Naql-maqollar. T.Matmurotov asarlarida naql-maqollar koʻpincha oʻrin tartibining oʻzgarishi, komponentlarining orasiga soʻz qoʻshilib ishlatilishi, baʼzi oʻrinlarda naqlning mazmunini saqlagan holda tashqi shakli oʻzgartirilib qoʻllanish holatlari uchraydi. Masalan,

«*Pálegi ashshı. Túynegi dushshı*»,

Bul sonıńday jaqsı oy,

Qawinnıń ashshı pálegi,
Al, túynegi tatlıgoy («Ona degan yorug'lik»).

Shoir asarlarida ikki naql-maqollarnı qator qo'llanish holatlari ham bor. Lekin bunda qo'pollıq sezilib turganligi yo'q, aksincha, ma'noni kuchaytish, badiiylikni orttirish maqsadida qo'llangan. Tilimizdagi *dushpan kuldırip, dos ashtıp aytadı* naqlining bir komponenti qisqartirilib, asarning g'oyasiga mos ravishda tanlab ishlatilgan:

*Jańulmas jaq bolmas, súrinbes tuyaq,
Adasıp qalıwdıń azabı jaman,
Dos ashtıp aytsa janıń goy, biraq,
Hárqashan tilleri mazalı jaman («Qoqılsangiz ham»).*

